

PUDRAT ShARTNOMASI № 34

« 7 » iyun 2022 yil

Kattaqo'rg'on shahri

«OBOD HUDUD KOMPLEKS» YK keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi asosida ish yurituvchi Sh.Eshnayeв nomidan, bir tomondan va Kattaqo'rg'on shahar Obodonlashtirish boshqarmasi, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi F.Kurbanov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar xaqida tuzdilar.

I. ShARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ga **Kattaqo'rg'on shahar Nurafshon MFY Siplon ko'chasi (L-620m)ni asfalt qoplamasini ta'mirlash** ishlarini bajarish uchun (keyingi o'rinlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. Shartnomaning umumiy summasi QQS bilan **423250420 (To'rt yuz yigirma uch million ikki yuz ellik ming to'rt yuz yigirma) so'm, QQS 55206576(Ellik besh millon ikki yuz olti ming besh yuz yetmish olti) so'm** deb belgilandi. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) uchun oldindan tulov miqdori 30 % ni tashkil qiladi. Ishlarni tugatish va topshirish muddati **24 iyun 2022 yil**
- 1.3. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi xisoblangan ilovada keltiriladi.

II. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 2.1. "Buyurtmachi" ning xuquqlari:
 - 2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
 - 2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning xisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
 - 2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofik beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofik tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;
 - 2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:
 - zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;
 - "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'grilanishi xarajatlarini qoplashni;
 - baxosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
 - 2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.
- 2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:
 - 2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjet mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;
 - 2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofik qabul qilish;
 - 2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, gazznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida xaq to'lash.
- 2.3. «Bajaruvchi» quyidagi xuquqlarga ega:
 - 2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan xaq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil xisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;
 - 2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofik ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.
- 2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish:

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofik yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofik muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni ___ kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning baxosi QQS bilan 423250420 (*To'rt yuz yigirma uch million ikki yuz ellik ming to'rt yuz yigirma*) so'm, QQS 55206576 (*Ellik besh millon ikki yuz olti ming besh yuz yetmish olti*) so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan "Xizmatlar"ning baxosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda xisob-kitob qilinadi.

IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun xujjatlari shartlari va talablariga muvofik zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb xisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarda belgilangan xollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana xisoblanadi. "Buyurtma"chining Xisob-kitob xujjatida gaznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga xaq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana xisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan xolda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul kilishni rad etishga xaklidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortikcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida karalmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofik yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va xajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga xaklidir, bu xaqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi xollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini xisobga olgan xolda qayta xisob-kitob qiladi, xisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri xisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob

bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmaligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'lik ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus xisob raqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xattixarakatlari (xarakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi xam ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fukarolik konunchiligi normalariga muvofik ko'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yo'qori deb topilgan taqdirda urtadagi farq tovar yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VI. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chikkan taqdirda, tomonlar, koidaga ko'ra, mustakil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sudga murojaat kilishga xaklidir.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va xisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

7.2 Shartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

7.3 Mazkur shartnoma 2022 yil « 7 » iyunda 2 nusxada tuzilgan bo'lib, 2022 yil «31» dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Kattaqo'rg'on shahar G'aznachilik bo'linmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshka tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga xar qanday o'zgartirish va ko'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xaqiqiy xisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning xar biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (ko'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.)

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida qo'yidagilarni kafolatlaydi va qo'yidagi majburiyatlarni xam o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korrupsiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga kat'iy rioya kiladi.

9.2. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi konun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi

9.3. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xattiharakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar

X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«BAJARUVChI»

«BUYURTMACHi»

«OBOD HUDUD KOMPLEKS» YK	Kattaqo'rg'on shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
Manzil: Kattaqo'rg'on shahri, U.Xayyom 9	Manzil: Kattaqo'rg'on shahri, U.Xayyom 9
Tel./faks 937034160	Tel./faks 66 456 41 08
sh/h 20208000005447415001	sh/h 4017228601840670451001100014
Bankning nomi^ Xalqbank Kattaqo'rg'on shahar filiali	byudjetdan mablag' oluvchi STIRi 200721220 OKONX 90110
MFO00725 STIRI308942293	G'aznachilik nomi _Moliya vazirligi G'aznachiligi
	G'azna h/v 23402000300100001010 .
	Bankning nomi _Mar.bank Toshkent sh. Bosh boshkarmasi XKKM
	MFO 00014 g'aznachilik STIRi 201122919
Raxbar Sh.Eshnayevev (имзо) М.Ў.	Raxbar F.Kurbanov (имзо)





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RGON SHAHAR YURIDIK XIZMAT
KO'RSATISH MARKAZI**

Kattaqo'rgon shahar A.Navoiy ko'chasi 156-yil Davlat xizmatlari markazi binosi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

Hujjat raqami № TW60458677

1.Loyihaning turi: Shartnoma


2.Loyihani nomi: Kattaqo'rg'on shahar obodonlashtirish boshqarmasi hamda Obod Xudud Kompleks UK o'rtasida tuzilgan 34 -sonli Kattaqo'rg'on shahar Nurafshon MFY Siplon ko'chasining asfalt qoplamasini tamirlash xaqidagi shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Shartnoma loyihasi Kattaqo'rg'on obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 7 iyun kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Kattaqo'rg'on shahar yuridik
xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti:**



A.Haitov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 93850 на приобретение КАТТАКУРГОН
ШАХАР Нурафшон МФЙ Сиплон кўчаси (L=620м)ни асфалт қопламасин таъмирлаш
ишларини бажариш**

Способ проведения электронный

Дата 03.06.2022

Время рассмотрения 03.06.2022 17:46

Конкурсная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	KURBANOV FURQAT SAITOVICH	Бошлик	Комиссия раиси
Секретарь комиссии	MARDIKULOV ERKIN SUYUNOVICH	омбор мудир	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	SHOMAMATOV ZUXRIDIN BAXRIDINOVICH	Бош хисобчи	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	ISHANKULOV ALISHER SULTANOVICH	Бош мухандис	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	SALOXUTDINOV JAMOLITDIN XABIB O'G'LI	насос курилмаси машинисти	Комиссия азоси
Член комиссии	NOSIROV AKRAM KUCHIMOVICH	Бўлим бошлиғи	ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 03.06.2022 года № лота 93850.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 10.00 / Весовой коэф. ценовой части: 90.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	КАТТАКУРГОН ШАХАР Нурафшон МФЙ Сиплон кўчаси (L=620м)ни асфалт қопламасин таъмирлаш ишларини бажариш . ҚҚС билан 426 829 268с, ҚҚС сиз 371 155 885сум. Таъмирлаш ишлари смета хужжатлари асосида нуксон далолатнома буйича килиниши ва ишлар тугагандан сунг ишларни хокимият давлат комиссияси кабул килиб олади. Акт воод, акт скрети работа, ф-2 ва ф-3 лар билан бирга топширилгандан сунг 30% тулов кучирилади
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	426 829 268.00
Стартовая сумма	426 829 268.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк ва солик қумитасидан қарздорлиги мавжуд эмаслиги ва инсофсиз иштирокчилар рўйхатида бор-йўқлиги тўғрисида маълумот ҳамда ндс тўловчи тўғрисида гувоҳнома бўлса тақдим қилиши

Тип: Текстовое значение

Описание: тақдим қилинган ҳужжатлар ҳаққонийлигига тақлиф берувчи корхона жавобгар

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	15	Афзалроқ	15	Экспертная		
ООО XUSHNUDBEK FAYZ INVEST	15	Афзалроқ	15	Экспертная		

Критерий №2 Молиявий кўрсаткичлари(охирги 2 йиллик баланс,ф-2 ва молиявий натижа) ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги

Тип: Текстовое значение

Описание: тақдим қилинган ҳужжатлар ҳаққонийлигига тақлиф берувчи корхона жавобгар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	10	афзалроқ	10	Экспертная		
ООО XUSHNUDBEK FAYZ INVEST	10	афзалроқ	10	Экспертная		

Критерий №3 Ишчи ходимлар тўғрисида маълумот камида 6 малакали мутахассис (Ф.И.Ш, меҳнат дафтарчадан қучирма паспорт ва буйруқ нусхалари) ва транспорт воситалари, асосий воситалар ва асбоблар(ТМЗ) мавжудлиги (балансда ёки ижара шартномаси)

Тип: Текстовое значение

Описание: тақдим қилинган ҳужжатлар ҳаққонийлигига тақлиф берувчи корхона жавобгар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	20	Афзалроқ	15	Экспертная		
ООО XUSHNUDBEK FAYZ INVEST	20	Афзалроқ	10	Экспертная		

Критерий №4 ажарувчи корхона тақлиф билан бирга шу объектнинг единичкасини ишланган ҳолда, корхона ретинги, корхона гувоҳномаси, раҳбарнинг буйруғидан қучирма, меҳнат дафтарчаси б-н бирга раҳбарнинг паспорт нусхасини тақдим қилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: тақдим қилинган ҳужжатлар ҳаққонийлигига тақлиф берувчи корхона жавобгар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	15	Афзалроқ	15	Экспертная		
ООО XUSHNUDBEK	15	Афзалроқ	10	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
FAYZ INVEST						

Критерий №5 Мехнатни муҳофаза қилиш ва техник хавфсизлик ходими 1 киши ишчилар мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: паспорт нусха, буйрук, мехнат дафтарчаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	10	Афзалроқ	8	Экспертная		
ООО ХУШНУДБЕК FAYZ INVEST	10	Афзалроқ	5	Экспертная		

Критерий №6 Ҳисоб рақамида объект кийматининг 15% миқдорида маблағ мовжудлиги тўғрисида банкдан х/р айланмаси тасдиқланган ва маълумот ҳамда бажарилган ишларга объектга нисбатан 3 йиллик кафолат. Агар шу муддат ичида носозлик ҳолати аниқланса пудратчи ҳисобидан бартараф этилади

Тип: Текстовое значение

Описание: ақдим килинган хужжатлар ҳаққонийлигига банк ва таклиф берувчи корхона жавобгар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
OBOD HUDUD KOMPLEKS	20	Афзалроқ	20	Экспертная		
ООО ХУШНУДБЕК FAYZ INVEST	20	Афзалроқ	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО ХУШНУДБЕК FAYZ INVEST	426 829 268.00	425 250 300.00	03.06.2022 09:53:33	89.58
OBOD HUDUD KOMPLEKS	426 829 268.00	423 250 420.00	03.06.2022 09:45:27	90.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО ХУШНУДБЕК FAYZ INVEST	7.7778	89.57675	97.35455
OBOD HUDUD KOMPLEKS	9.2222	90	99.2222

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 93850 от 03.06.2022 года на приобретение КАТТАКУРГОН ШАХАР Нурафшон

МФЙ Сиплон кўчаси (L=620м)ни асфалт қопламасин таъмирлаш ишларини бажариш определила победителем:
OBOD HUDUD KOMPLEKS
308942293

и резервный исполнитель: ООО XUSHNUDBEK FAYZ INVEST (306229326)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	ISHANKULOV ALISHER SULTANOVICH	Согласен	
Член комиссии	SALOXUTDINOV JAMOLITDIN XABIB O'G'LI	Согласен	
Председатель комиссии	KURBANOV FURQAT SAITOVICH	Согласен	
Член комиссии	SHOMAMATOV ZUXRIDDIN BAXRIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	NOSIROV AKRAM KUCHIMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП